ISSN:3030-332X
Impact factor: 9,493
International journal of scientific researchers

NAFAS OLISH A'ZOLARI KASALLIKLARINI ANIQLASHDAGI DASTLABKI USULLAR.

Ahmedov Ahadulla Qosim o'g'li

Farg'ona Jamoat salomatligi tibbiyot insituti assistent

axadulloaxmedov09@gmail.com

+99888-817-87-65

Annotatsiya. Ushbu maqola orqali nafas olish sistemasi a'zolari kasalligilarida bemorlarda so'rab surushtiruv usulini, kasallika tashxis qo'yishdagi axamyati o'rganildi. Bu usul kasallika tashxis qo'yishda dastlabki qadam xissoblanadi. O'z vaqtida tashxis qo'yish va to'g'ri davolash orqali bu kasalliklarning asoratlarini kamaytirish va inson hayot sifatini yaxshilash mumkin.

Kalit so'zlar: Ko'krak qafasi, oqarish, Biota, Kusmaulya, Cheyn-stoksa, o'pka o'smalari, penvmoskleroz, bronxoektaz, allergik xolatlar.

Kirish.Nafas olish sistemasi a'zolari kasalligi bilan kasallangan bemorlarda so'rovnoma o'tkazishda quyidagilarga e'tbor qaratiladi.

Bemor yoshi- bu kasalliklarni aniqlashda ahamiyatga ega, ya'ni yosh

bolalarda ko'proq zotiljam, o'rta yoshlarda esa bronxit, zotiljam, bronxial astma, katta yoshdagilarda esa o'pkada o'smalar, bronxoektaz kasalligi, penvmoskleroz kabi kasalliklar ko'p uchraydi.

Bemor jinsi- tatqiqotlar shuni ko'rsatadiki. Nafas olish kasallilarida bemorni jinsi unchalik ko'p rol o'ynamaydi. Erkak va ayollarda xam o'pka kasalliklari bir hilda uchraydi.

Bemor kasbi -asosiy axamyatga ega. Kimyoviy, sement, parfyumeriya zavodlarida ishlovchilarda ko'proq o'pkani allergik kasalliklari ya'ni astmatoid bronxit, bronxial astma ko'p uchraydi. Kuruvchilarda, shofyorlarda esa bronxit, zotiljam ko'p uchraydi. Karnaychilarda esa o'pka emfizemasi ko'p uchraydi.

Turar joyni – katta ahamiyatga ega xissoblanadi.

Ma'lumoti- xam deyarli diagnostik ahamiyatiyo'q.

Anamnesis morbid-yig'ishda kasallikni boshlanish sabablarini, kasallikni to'satdan yoki asta-sekin boshlanilishini, kasallik belgilarini ketma-ket rivojini, qayerlarda bemor davolanganligini, qanday tekshiruvlardan o'tgan va ularni natijalarini, qabul qilgan dorilar turini, xamma dorilarni asoratsiz iste'mol qila olishlikni, kasallikni faslga bog'liq yoki bog'liq masligini, kasallik nima sababdan yana takrorlanayotganligini, sanatoriya yoki sixatgoxlarda davolanganmi yoki yo'qmi, kabi savollarga e'tibor qaratiladi.

Anamnesis vitae- yig'ishda yoshlikda kechirgan kasalliklarini, uy va ish sharoitlarini, qarindosh urug'laridagi kasalliklar to'g'risida ma'lumot olish kerak. Bundan tashqari chekish-chekmasligini xam surishtiriladi. Oila a'zolaridagi allergik xolatlar va nasliy xolatlar to'g'risida xam ma'lumot olinadi.

Nafas olish sistemasi a'zolari kasalligilarida bemorlarni umumiy ko'zdan kechirganda quyidagilarga ham e'tibor berish kerak.

a) Bemorni axvoliga (U engil, qonikarli xoldan, og'ir xolgacha bo'lishi mumkin).

b) Bemor xolatiga (aktiv,passiv, ilojsizlik)

c) Bemor xushiga (xushi joyida, sopor, stupor, koma)

d) Bemorni teri va shilliq qabatlari rangiga (oqarish, ko'karish, toshmalar toshishi)

Nafas olish sistemasi a'zolari kasalligilarida bemorlarga hususiy kuzatganda quyidagilarga e'tibor beriladi:

a) Ko'krak qafasi formasi, ya'ni shakliga;

b) Nafas olish tipiga;

c) Nafas olish soniga;

d) O'pkani pastki qirg'oqlarini nafas olishda faol ishtirok etishiga;

Ko'krak qafasi meyorda astenik, giperstenik yoki normostenik xolatda bo'ladi. Ko'proq silindrsimon bo'ladi. Patologiyada esa raxitik, kayiksimon, paralitik, lordoz, kifoz, kifoskolioz xolatlarda bo'ladi.

Nafas olish tipi ayollarda ko'krak va erkaklarda qorin tipida bo'ladi. Keksalarda esa aralash tipda. Nafas olish kattalarda bir minutda 16-18 marta bo'ladi. Patologik nafas olish tiplari Biota, Kusmaulya, Cheyn-stoksa turlarida namoyon bo'ladi.

Nafas olish sistemasi a'zolari kasalligida bilan kasallangan bemorlarda quyidagi kilinik belgilar uchraydi.

1) Yo'tal;

2) Xansirash;

3) Nafas qistash;

4) Qon tuflash yoki o'pkadan qon ketishi;

5) Ko'krak qafasini og'rig'i;

6) Xaroratni ko'tarilishi;

7) Terlash;

8) Darmonsizlik;

9) Ishtaxani pasayishi

Bemor yo'taldan shikoyat qilganda, uni strukturasini aniqlab yozish kerak ya'ni:

a) yo'tal doimiymi yoki xuruj bilan bo'ladimi?

b) yo'tal kuchlimi yoki kuchsizmi?

v) yo'tal ertalab ko'proq bezovta qiladimi yoki kunni vaqti rol o'ynamaydimi?

g) yo'tal quruqmiyoki balg'amlimi?

d) balg'amli bo'lsa balgam ko'p ajraydimi yoki ozmi?

e) balg'am ni xidi bormi yoki yo'qmi?

j)balg'am tiniqmi yoki loyqami?

z) balg'am oson ajraladimi yoki qiyinmi?

m) ajralayotgan balg'am ni kunlik miqdori qancha?

Bu savollarga javob olinsa, tashxis qo'yish osonlashadi.

Xansirash sub'ektiv va ob'ektiv bo'ladi. Bemor xansirashdan shikoyat qilsayu, lekin nafas olish soni oshmasa, bu sub'ektiv xansirashdir. Ob'ektiv xansirashda nafas olish soni kattalarda bir minutda 20

tadan ko‘p bo‘ladi. Ekspirator xansirashda nafas chiqarish kiyin, inspirator turida esa nafas olish qiyin bo‘ladi.

Nafas qisish xuruj bilan bo‘lib, bronxial astmada paydo bo‘ladi. Bunda bemor ilojsizlik xolatini egallaydi.Bu xolatni tushuntiriladi.

Qon tuflash va qon ketishi o‘pka kasalliklaridan ko‘proq o‘pka siliga, bronxoektaz kasalligiga va o‘pka infarktiga xosdir.

Bemor nafas olganda ko‘krak kafasidagi og’riqdan shikoyat qilsa, bu ko‘proq quruq plevrit kasalligiga xos bo‘ladi. Buni miozit, qovurg’a aro nevralgiya, qovurg’ani jaroxatlanishi, stenokardiya, nevroz kasalliklaridan farqlash kerak.

Nafas olish sistemasi a’zolari kasalligilari jumladan zotiljam, bronxit (o’tkir yoki surunkali) xaroratni ko’tarilishi bilan kechadi.

Xulosa. Nafas olish a’zolari kasaliklari bugungi kunda keng tarqalgan kasalliklardan biri bo’lib, inson organizmining umumiy faoliyatiga salbiy ta’ir ko’rsatadi. Shu sababli bu tizimdagi har qanday kasalik inson salomatligiga haf solishi mumkin. Kasallik belgilari paydo bo’lishi bilan, shifokorga murojat qilishi tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Baxodirov K.B. «Ichki kasalliklar diagnostikasi», Toshkent, 1992 y.

2. Qosimov E. «Ichki kasalliklar propedevtikasi», Toshkent, 1996 y.

3. Shelagurov A.A. «Propedevtika vnutrennix bolezney», M, 1975 g.

4. Dovgyallo O. «Rukovodstvo k prakticheskim zanyatiyam po propedevtiki vnutrennix bolezney» , Minsk, 1986 g.

5. Komarov F. «Diagnostika i lechenie vnutrennых bolezney», Moskva,1992 g.

6. https://cyberleninka.ru/article/n/soya-urug-ini-saqlashda-namligining-don-sifat-ko-rsatkichlariga-ta-siri/viewer